



O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA ONA OBRAZI VA UNING BADIY AHAMIYATI

Mashrabjanova Maryamxon Dilmurod qizi

Namangan davlat pedagogika insituti "O'zbe tili va adabiyoti" yo'nalishi

1-bosqich talabasi

mashrabjanovamaryam@gmail.com

Ibragimova Iroda Artikmashrabovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya: Ushbu maqolada O'tkir Hoshimov asarlari va ularda ona obrazining yaratilishi yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada ona obrazini go'zal tarzda yoritib berilgan asarlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: alla, "onalarning yozuvchisi, tabiatning eng buyuk ixtirosi, gumroh bandalar.

Qay bir yozuvchi yoki shoir ijodiga nazar solmaylik, ona obrazi mavjud va har bir ijodkor o'z yo'nalishi va iste'dodiga ko'ra ona obraziga alohida ta'rif beradi. Masalan, Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasidagi "Hijron kunlarida" Qochoq deb nomlangan parchasidagi ona shunday mahorat bilan tasvirlanadiki, uni o'qigan har bir kitobxon qalbida onaga bo'lgan muhabbat ortadi. Chunki asarda ona garchi o'zi betob bo'lsa ham qochoq o'g'liga har kuni ovqat olib boradi. Asardagi Tursunboy urushdan qochib kelganligi uchun hamma undan yuz o'girgan bo'lsa ham uning onasi Jannat xola bunday qilmaydi. Aksincha, o'zi betob bo'lsa ham shu holida farzandiga ovqat olib boradi. Bundan ko'rinadiki, hech bir ona farzandi qanday bolishidan qat'iy nazar hech qachon voz kechmaydi, garchi unga butun dunyo qarshi bo'lsa ham. Jannat xola obrazi onaning farzandi uchun o'z sog'ligini unutishga hatto jonini qurbon qilishga ham tayyor ekanligining yaqqol isboti emasmi?! Bunday isbotlar keltirilgan asarlar talaygina.

Biroq O'tkir Hoshimov o'zining go'zal asarlari bilan o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega va hatto "onalarning yozuvchisi" nomini olgan o'tkir qalam sohibi hisoblanadi. Chunki u o'z asarlarida ona obrazini shunday tasvirlaydiki, uni o'qigan har bir inson qalbida ona deb atalmish ulug' zotga nisbatan mehr-muhabbati yanada ortadi va his qiladi. Yozuvchi ona obrazini shunday samimiy voqealar va oddiy ko'rinishda tasvirlaydiki, hattoki uni yosh kitobxonlar ham bemalol o'qib tushuna oladi. Chunki adib ona obrazini yaratishda samimiylikni bosh o'ringa olib chiqadi. Bu esa asarni mutolaa qilayotgan kitobxonga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Ana shu samimiylik bilan inson qalbiga kiradi va u yerda onaga bo'lgan



mehr urug'ini qaday oladi. Adib ana shu samimiylik bilan o'z asarlarini boyitadi. Bu esa adibning yuqori iste'dod egasi ekanligini namoyon etadi.

Hattoki qisqagina hikoyasi orqali ham adib o'zi ko'zlagan maqsadni kitobxonga yetkazib bera oladi. Ayniqsa, uning "Urushning so'nggi qurboni hikoyasi orqali onaning o'z farzandi uchun o'z jonini qurbon qilishi ko'rsatib berilgan. Bu asar garchi urush va uning oqibatlarini tasvirlab bersa-da, asardagi onaning o'z farzandining sog'ayib ketishi uchun qilgan harakatlari va oxir-oqibat o'z jonini qurbon qilganligi hikoyani o'qiyotgan kitobxon e'tiborini torta oladi. Chunki asardagi Umri xola farzandi Shone'matning sog'ayib ketishi uchun o'z jonini qurbon qiladi. Yovuvchi urush oqibatlari bilan bir qatorda Umri xola obrazi orqali onalarning cheksiz mehrini ham ko'rsatib beradi. Bu esa adibning naqadar buyuk iste'dodegasi ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Onalar to'g'risida yozilgan asarlar haqida so'z borar ekan, shubhasiz, har bir kitobxon xayoliga birinchi navbatda O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari keladi. Bu asarni "onalar haqida yozilgan eng yaxshi asar" deb aytish mumkin. Chunki qissadagi har bir hikoyada ona obrazi qatnashgan va bu obraz oddiy emas, balki yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan. Sababi adib bu asarni shunchaki to'qib emas, o'z bolalik xotiralari bilan umumlashtirgan holatda yozadi. Shuning uchun ham bu asar kitobxon qalbiga kirib boradi. Asarda onalarning farzandi erishgan kichik yutuqlari uchun ham dunyolarcha quvonishi, biroz betoblighi esa uni xavotirga solishi va farzandi uchun o'z jonini ham xatarga qo'yishga tayyor ekanligi yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Shuningdek, O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasidagi "Alla" hikoyasida ona mehri to'g'risida quyidagi go'zal fikrlarni keltiradi: "Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi. Nega shunaqa? Balki shuning uchun ham ona tabiatning eng buyuk ixtirosidir". Bu faqat alla bilan bog'liq emas. Aslida bu ona mehri. Yuqorida keltirilganidek, ona qaysi millat egasi bo'lishidan qat'iy nazar uning mehrini boshqa millat farzandi ham his qila oladi. Bu esa ona mehri hech qanday millat, vaqt, joy va inson tanlamaydi. Shuningdek, "tabiatning eng buyuk ixtirosi" bu onalar uchun berilgan eng to'g'ri ta'rif. Chunki onalarning cheksiz mehr-muhabbati, sabr-toqati, mehnatkashligi haqiqiy komil insonga xosdir. Biroq bu insoniylik xislatlari hamma insonlarda ham mavjud emas, onalar bundan mustasno, albatta. Sababi bunday insoniylik xislatlarining barchasi onalarga xos. Shuning uchun ham ona tabiatning eng buyuk ixtirosidir.

Adib asarning boshida onalarga yuqoridagi ta'rifni beradi va qissadagi har bir hikoya har bir ona bilan bo'lgan suhbatlarning o'zidayoq bu ta'rif nechog'lik to'g'ri ekanligini isbotlab beradi. Bunday hikoyalardan biri "Gilam



paypoq" hikoyasiga nazar soladigan bo'lsak, bu hikoyada onaning farzandi sog'ayib ketishi uchun o'z sog'ligidan voz kechgani tasvirlanadi. Hikoyada ona qishning qahraton sovuqlarida oyoq yalang qor kechib farzandini tabibga olib boradi. Chunki ona uchun eng muhimi - farzandining sog'ligi. Chunki hech bir ona uchun farzandining sog'ligidan muhimroq narsa yo'q. Bu esa adib tomonidan buyuk iste'dod bilan tasvirlangan. Ana shu paytda, ya'ni farzandi betob bo'lgan paytda o'z joni qiynalayotganini o'ylamaydi hatto his qilmaydi.

Yozuvchi esa bu vaziyatni mahorat bilan tasvirlab, kitobxonga yetkazib beradi:

"Oyim tanchadan oyog'ini chiqardi. Ikkala oyog'i qip-qizil go'sht bo'lib ketgan edi.

Sovuq yegani yo'q, - dedi sekin. - Qaytaga isib ketdi. Qorda o'zi isib ketarkan.

Hoji buvi uning oyog'ini uqalab ko'rdi.

Sezyapsizmi?

Nimani? dedi oyim oyog'iga emas, menga qarab.

Qo'limni sezyapsizmi?

Oyim indamay bosh chayqadi-da, piqillab yig'lab yubordi."

Ona oyoqlari sovuqdan qizarib ketganini hatto sezmaydi ham. Uning xayoli farzandini tezroq tabibga olib borishda va shuning uchun ham ona o'zi uchun bir umrlik dardni orttirib oladi. Lekin buning sababi farzandi ekanligini hech qachon minnat qilmaydi hatto hech kimga aytmaydi ham. Bu ham onaning farzandi uchun o'z jonidan kechishga ham tayyor ekanligining isbotidir.

"Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko'p bo'ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzundan-uzoq duo qiladi. Shunday mehribon o'g'li borligini aytib qo'shnilarga maqtanadi." Hikoyaning ayni shu boshlanish qismi ham e'tiborga loyiq. Asarning boshidanoq onaning qanday ulug'vor fazilatga ega ekanligi ko'rinadi. Ona farzandi olib kelgan oddiy gilam paypoq uchun ham dunyolarcha quvonadi. Hattoki qo'shnilarga ham maqtanadi. "Dunyoning ishlari" qissanining har bir hikoyasida onalarga xos har bir insoniy xislat yoritib berilgan.

Ona oddiygina biz olib kelgan gilam paypoq uchun shunchalik xursand bo'lsa, boshqa bir arzigulik sovg'a uchun qay darajada xursand bo'lishini hech o'ylab ko'rganmisiz?! Aslida, ona uchun hech qanday sovg'a muhim emas. Ona uchun farzandining muvaffaqiyati uning kulgusi ham eng qimmat sovg'a. Unga aytilgan ikki og'iz shirin so'z va u uchun ajratilgan vaqt ona uchun hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydigan - sovg'a.

Hech o'ylab ko'rganmisiz, nima uchun biz ana shu oddiy sovg'alarni



onamizga bermaymiz?! Nega ikki og'iz shirin so'zni qizg'onamiz?! Nahotki onamizning ajal bilan olishib bizni dunyoga keltirishi, bizni deb uyqusiz bedor tunlari va biz uchun qilgan mehnatlari bizning ikki og'iz "sizni yaxshi ko'raman" degan so'zimizga va u bilan suhbatlashilgan bir soat vaqtga arzimasa. Agar biz shuni ham qizg'onayotgan bo'lsak, biz noshud farzand bo'lib qolmaymizmi?! Nega biz ularni yoshi o'tib o'z sog'ligini yo'qotayotgan paytda ularga ular bizga yoshligimizda g'amxo'rlik qilgani kabi biz g'amxo'rlik qilolmaymiz. Biz hali aqlimizni tanimay hatto o'zimiz kimligimizni bilmagan paytda biz bilan bo'lgan ona emasmi?! Aslida, biz ularning oldida bir umr qarzdormiz, ular uchun qancha yaxshilik qilsak ham oz.

O'tkir Hoshimov ham bejizga "onalar yozuvchisi" deb atalmaydi. Chunki u faqatgina "Dunyoning ishlari" asarida emas, balki deyarli barcha asarlarida onalarning cheksiz mehri haqida yozadi. Adib "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarining muqaddimasida esa shunday yozadi:

"Aziz o'quvchim! Bu kitobchani qariyb qirq yil yozdim. Bular mening Kuzatuvlarim. Bu ham bejiz emas, aslida. Yuqorida aytilganidek, adib asarini shunchaki to'qib yozmaydi, balki o'z bolalik xotiralari va o'zi hayoti davomidagi kuzatuvlari asosida yozadi. Bu esa kitobxon e'tiborini tez tortishi va adib qisqa vaqt ichida kitobxonlar qalbidan chuqur joy olishining yana bir isbotidir. Shuningdek, ushbu asardagi "Tarnov" hikoyasida ham onaning har doim farzandini o'ylashi yoritib berilgan. Hikoyadagi ona tarnovni tuzatish uchun tomga chiqib ketgan o'g'li qaytib tushgunga qadar hotirjam bo'lmaydi. Onadagi farzandiga bo'lgan mehri bunga yo'l qo'ymaydi. Adibning har qaysi asarini o'qimaylik, ona obrazi go'zal tarzda ifodalab berilgan.

Shuningdek, nafaqat ona balki ota-onaga ham go'zal fikrlar keltiradi: "Odamlarga hayronsan. Ota-onasi tirikligida ikki og'iz shirin so'zni tekinga aytmaydi-da, ular o'lganidan keyin ming-ming pul sarflab, o'sha so'zlarni qabrtoshga yozdirib qo'yadi..." Adib bejizga bu fikrlarni "gumroh bandalar" deb nomlamaydi. Chunki bugungi kunda mana shunday gumroh bandalarni topish mushkul emas. O'tkir Hoshimovning asarlari biz uchun bir turtki- o'z onamizga shirin so'z aytish, unga vaqt ajratish va uni borida qadriga yetishimiz uchun turtki. Agar har bir inson adibning yuqoridagi asarlarini o'qib, undan xulosa chiqara olsa, adib o'z maqsadiga erishgan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Dunyoning ishlari"/O'tkir Hoshimov-Toshkent: G'afurG'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
2. "Urushning so'nggi qurboni"/O'tkirHoshimov-Toshkent: Yosh gvardiya, 1986



3. Daftari hoshiyasidagi bitiklar"/O'tkirHoshimov. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001
4. 4.Internet manbalari.www.google.com